

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI**
(2026-yil 1-son)



**PEDAGOGIKA
PEDAGOGY**

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA HUQUQIY KOMPETENTLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING AMALIY-TEXNOLOGIK TIZIMI**

<https://doi.org/10.70728/qdpi.v08.i01.071>

Xolmatov Oybek Orifovich

Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi

E-mail: o_o_xolmatov@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-0414-3733>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda huquqiy kompetentlikni shakllantirishning amaliy-texnologik tizimi tahlil qilinadi. Huquqiy bilim va ko‘nikmalarni samarali rivojlantirishga qaratilgan metodik va pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar hamda interaktiv ta‘lim vositalarining o‘rni maqolada ko‘rsatiladi. Mazkur tizimda bosqichma-bosqich pedagogik faoliyat, tajriba mashg‘ulotlari va huquqiy treninglar orqali talabalar nazariy bilimni amaliy ko‘nikmalarga aylantirish imkoniyatlari ochib beriladi. Natijalada bo‘lajak o‘qituvchilarning huquqiy ongini oshirish, kasbiy faoliyatda huquqiy xavfsizlikni ta‘minlash va ta‘lim jarayonida samarali innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishda amaliy ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatildi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchilar, huquqiy kompetentlik, pedagogik texnologiya, amaliy-texnologik tizim, innovatsion ta‘lim, huquqiy ong.

Аннотация. В данной статье анализируется практико-технологическая система формирования правовой компетентности будущих педагогов. Рассматривается роль методических и педагогических подходов, направленных на эффективное развитие правовых знаний и навыков, а также инновационных технологий и интерактивных средств обучения. В рамках системы пошаговая педагогическая деятельность, практические занятия и правовые тренинги позволяют студентам преобразовывать теоретические знания в практические навыки. Результаты исследования показывают, что данная система имеет практическое значение для повышения правового сознания будущих педагогов, обеспечения правовой безопасности в профессиональной деятельности и внедрения эффективных инновационных подходов в образовательный процесс.

Ключевые слова: будущие педагоги, правовая компетентность, педагогические технологии, практико-технологическая система, инновационное обучение, правовое сознание

Abstract. This article analyzes the practical-technological system for developing legal competence in future teachers. The study highlights the role of methodological and pedagogical approaches aimed at effectively enhancing legal knowledge and skills, as well as the use of innovative technologies and interactive learning tools. Within this system, step-by-step pedagogical activities, practical exercises, and legal training enable students to transform theoretical knowledge into practical skills. The results demonstrate that this system is practically significant for increasing the legal awareness of future teachers, ensuring legal safety in professional activities, and implementing effective innovative approaches in the educational process.

Keywords: future teachers, legal competence, pedagogical technologies, practical-technological system, innovative education, legal awareness.

KIRISH. Ta’lim jarayonida huquqiy bilim va kompetentlikni shakllantirish zamonaviy pedagogikaning eng muhim va dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar nafaqat fanlarni o‘qitish bilan shug‘ullanadi, balki o‘z shogirdlarida fuqarolik ongini, huquqiy madaniyatni va mas’uliyat hissini shakllantirishda bevosita ishtirok etadi. Shu sababli, ularning huquqiy kompetentligi pedagogik faoliyatning samarali, barqaror va qonuniy asosda amalga oshirilishini ta’minlashda muhim omilga aylanishi tabiiydir.

Huquqiy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishni ham talab qiladi. Bu esa pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar, simulyatsion va bosqichma-bosqich amaliy mashg‘ulotlar orqali samarali tarzda amalga oshiriladi. Amaliy-texnologik tizim bo‘lajak o‘qituvchilarga huquqiy bilimlarni real pedagogik faoliyat sharoitida qo‘llash imkoniyatini yaratadi, shu bilan birga ularning kasbiy faoliyatida huquqiy xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarda huquqiy kompetentlikni shakllantirishning amaliy-texnologik tizimini yaratish va uning samaradorligini ilmiy asosda tadqiq etish pedagogika fanida nafaqat muhim ilmiy, balki amaliy vazifa sifatida ham qaraladi. Mazkur maqolada ushbu tizimning tarkibi, metodikasi, qo‘llash usullari va samaradorligi batafsil tahlil qilinadi, shuningdek, pedagogik amaliyotda uning ahamiyati va foydaliligi yuzasidan xulosalar taqdim etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bo‘lajak o‘qituvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va huquqiy ta’lim sohalarida keng o‘rganilmoqda. Ilmiy manbalarda huquqiy kompetentlik tushunchasi turlicha ta’riflanadi. Masalan, A.Islomov huquqiy kompetentlikni shaxsning huquqiy bilim, ko‘nikma va qadriyatlarini tizimli shaklda qo‘llay olish qobiliyati sifatida talqin qiladi. Shu bilan birga, huquqiy kompetentlik nafaqat bilimlarni egallash, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llash va huquqiy xatti-harakatlarni shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda huquqiy kompetentlikni shakllantirish tizimli va maqsadli pedagogik yondashuvni talab qiladi. S.Axmedov amaliy metodlar, masalan, rolli o‘yinlar, situatsion vaziyatlar va muammoli vazifalar orqali talabalar huquqiy bilimlarini

mustahkamlash samaradorligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, Z.Ergasheva ta’lim jarayonida interfaol va integrativ texnologiyalarni qo‘llash orqali huquqiy kompetentlikni rivojlantirish samaradorligini oshirish mumkinligini qayd etadi.

Xorijiy adabiyotlarda ham huquqiy kompetentlik masalasi keng o‘rganilgan. A.Berkowitz va R.Bier huquqiy madaniyat va etika asosida kompetentlikni shakllantirishni ta’kidlaydi. Shuningdek, J.Banks pedagogik jarayonda huquqiy bilim va ijtimoiy-huquqiy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish muhimligini bildiradi. Bu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, huquqiy kompetentlikni rivojlantirish faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmasdan, talabaning amaliy faoliyati, ijtimoiy rollari va etika me’yorlari bilan integratsiyalashgan holda amalga oshirilishi lozim.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish uchun:

- *Nazariy asoslarni chuqurlashtirish* huquqiy bilim va qonunchilikni o‘zlashtirish.
- *Amaliy faoliyat orqali o‘rgatish* situatsion vazifalar, treninglar, loyihalar orqali kompetentlikni shakllantirish.
- *Pedagogik texnologiyalarni qo‘llash* interfaol, integrativ va problemali o‘qitish metodlarini tatbiq etish.
- *Shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirish* huquqiy xulq, etik va madaniy kompetensiyalarni shakllantirish.

Adabiyotlar tahlili bo‘lajak o‘qituvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish murakkab, tizimli va amaliy-texnologik yondashuvni talab qiluvchi jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Tadqiqotlar ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun integrativ metodlar, interfaol texnologiyalar va amaliy mashg‘ulotlarni qo‘llash zarurligini ta’kidlaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvni talab qiladi. Metodologiya pedagogika va huquqshunoslikning integrativ printsiplariga tayangan holda shakllantiriladi. Metodologik asos quyidagi tamoyillarga tayangan:

Tizimlilik prinsipi – huquqiy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni o‘qituvchining shaxsiy, ijtimoiy va professional komponentlarini qamrab olgan holda amalga oshiriladi.

Faollik va interaktivlik prinsipi – talabalar amaliy mashg‘ulotlar, muammoli vaziyatlar, treninglar orqali bilim va ko‘nikmalarini faol ravishda mustahkamlashadi.

Bosqichma-bosqichlik prinsipi – kompetentlikni shakllantirish jarayoni nazariy bilimlarni o‘zlashtirishdan boshlanib, amaliy va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishgacha bosqichma-bosqich olib boriladi.

Integratsiyalashganlik prinsipi – pedagogik, huquqiy va ijtimoiy komponentlar uyg‘unligi talab etiladi, bu esa bo‘lajak o‘qituvchining umumiy madaniyatini oshiradi.

Reflektivlik prinsipi – talabalar o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini aniqlash va tuzatish orqali o‘z huquqiy xulqini rivojlantiradi.

Huquqiy kompetentlikni rivojlantirish usullari va texnologiyalarini integratsiyalashgan tizimi quyidagi jadval orqali yoritilishi mumkin:

1-jadval

Komponent	Ma’lumot berish usullari	Amaliy rivojlantirish usullari	Kutilayotgan natija
Nazariy bilim	Ma’ruza, elektron darsliklar, ilmiy maqolalar	Testlar, savol-javob, qisqa konspektlar tayyorlash	Huquqiy terminologiyani to‘liq tushunish, qonunchilikni bilish
Amaliy ko‘nikma	Vaziyatli mashg‘ulotlar, case-study, role-play	Sud ishini modellashtirish, huquqiy hujjatlarni tayyorlash	Qonunchilikni amaliyotda qo‘llash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish
Ijtimoiy-psixologik kompetentlik	Guruh muhokamaları, interfaol seminarlar	Loyihalar, jamoaviy ishlash, simulyatsiya	Etik va ijtimoiy normalarni hurmat qilish, jamoada faoliyat ko‘rsatish
Reflektiv kompetentlik	Shaxsiy jurnal, o‘z-o‘zini baholash	O‘z ishini tahlil qilish, mentor bilan muhokama	O‘z xatolarini aniqlash va tuzatish, shaxsiy rivojlanish
Innovatsion texnologiyalar	Multimedia, virtual laboratoriyalar	Onlayn treninglar, interaktiv modullar	Raqamli vositalar yordamida huquqiy bilimlarni mustahkamlash, yangi pedagogik yondashuvlarni qo‘llash

Ushbu metodologik jadval amaliy-texnologik tizimning asosiy tarkibiy qismlarini vizual ko‘rinishda aks ettiradi va huquqiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida nazariy, amaliy va ijtimoiy komponentlarning uyg‘unligini ta’minlaydi. Tadqiqot jarayonida har bir komponent bo‘yicha individual va guruhli monitoring olib boriladi, bu esa kompetentlikning samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, interaktiv pedagogik texnologiyalar, masalan, simulyatsiya, muammoli o‘qitish, loyihaviy ishlash va mentorlik, asosiy vosita sifatida qo‘llaniladi. Bu usullar bo‘lajak o‘qituvchilarning huquqiy xulqini shakllantirish, analitik fikrlash va ijtimoiy hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bo‘lajak o‘qituvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan amaliy-texnologik tizim bosqichma-bosqich jarayonda joriy etildi va uning samaradorligi nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar hamda ijtimoiy-reflektiv kompetentlik ko‘rsatkichlari asosida baholandi. Dastlabki diagnostika natijalariga ko‘ra, talabalar huquqiy bilimlarining o‘rtacha darajasi 51 foizni tashkil etdi. Tajriba yakunida ushbu ko‘rsatkich 58 foizga yetdi, bu esa tizimli va maqsadli pedagogik ta’sir natijasida nazariy tayyorgarlikda barqaror, ammo keskin bo‘lmagan ijobiy siljish yuz berganini ko‘rsatadi.

Amaliy ko‘nikmalarni baholash jarayonida talabalar huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanish va pedagogik faoliyatda huquqiy qarorlar qabul qilish qobiliyatlari tahlil qilindi. Boshlang‘ich bosqichda ushbu ko‘rsatkich 44 foiz darajasida aniqlangan bo‘lsa, tajriba yakunida 52 foizga ko‘tarildi. Mazkur natija amaliy mashg‘ulotlar, vaziyatli topshiriqlar va muammoli o‘qitish texnologiyalarining talabalar faoliyatiga ijobiy, ammo asta-sekin ta’sir ko‘rsatganini tasdiqlaydi.

Ijtimoiy-huquqiy va reflektiv kompetentlik ko‘rsatkichlarida ham sezilarli, biroq real o‘shish kuzatildi. Tadqiqot boshida talabalar o‘z huquqiy xatti-harakatlarini tahlil qilish va baholash qobiliyatida 39 foizlik natija qayd etilgan bo‘lsa, tajriba yakunida bu ko‘rsatkich 48 foizni tashkil etdi. Bu holat refleksiya va o‘z-o‘zini baholash mexanizmlarini ta’lim jarayoniga muntazam joriy etish huquqiy ong va mas’uliyatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Huquqiy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni qisqa muddatda keskin natijalarni bermaydi, balki bosqichma-bosqich va izchil pedagogik ta’sir orqali amalga oshadi. Amaliy-texnologik tizimning samaradorligi aynan uning integrativ xususiyatida namoyon bo‘lib, nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘langanda talabalar huquqiy fikrlashi va professional mas’uliyati asta-sekin rivojlanadi. Interfaol metodlar talabalar faolligini oshirgan bo‘lsa-da, kompetentlikning barqaror shakllanishi uchun ularni uzoq muddatli va uzluksiz qo‘llash zarurligi aniqlandi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqilgan amaliy-texnologik tizim bo‘lajak o‘qituvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirishda real va ishonchli pedagogik vosita hisoblanadi. Mazkur tizim pedagogik amaliyotga tatbiq etilganda huquqiy bilimlar va ko‘nikmalarni izchil rivojlantirishga xizmat qiladi hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning professional faoliyatida huquqiy madaniyatni shakllantirish uchun mustahkam asos yaratadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot bo‘lajak o‘qituvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimini ishlab chiqish va uning samaradorligini asoslashga qaratildi. Huquqiy kompetentlik bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligida muhim tarkibiy qism bo‘lib, u nafaqat huquqiy bilimlarni egallashni, balki ularni pedagogik faoliyatda ongli va mas’uliyatli tarzda qo‘llay olish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Tadqiqot davomida huquqiy kompetentlikning nazariy, amaliy va ijtimoiy-reflektiv komponentlari aniqlanib, ularni rivojlantirishga yo‘naltirilgan amaliy-texnologik tizim ishlab chiqildi. Ushbu tizim interfaol metodlar, vaziyatli topshiriqlar, muammoli o‘qitish va reflektiv yondashuv asosida tashkil etildi. Tajriba-sinov ishlari natijalari tizimning bo‘lajak o‘qituvchilarning huquqiy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini tasdiqladi. Huquqiy kompetentlikni shakllantirish jarayoni uzoq muddatli va izchil pedagogik faoliyatni talab etadi. Amaliy-texnologik tizim nazariy bilimlar bilan amaliy mashg‘ulotlar o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni ta’minlab, talabalar huquqiy ongini, mas’uliyatini va reflektiv fikrlashini rivojlantirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, interfaol va

integratsiyalashgan yondashuvlar talabalarni ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirib, ularning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirdi.

Xulosa qilish mumkinki, ishlab chiqilgan amaliy-texnologik tizim bo‘lajak o‘qituvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi va uni oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur tizim bo‘lajak o‘qituvchilarning professional faoliyatida huquqiy madaniyatni shakllantirish, pedagogik mas’uliyatni oshirish hamda ta’lim jarayonida qonuniylik va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2022.
4. Islomov A.A. Huquqiy madaniyat va huquqiy kompetentlik asoslari. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2019.
5. Karimova D.Q. Pedagogik kompetentlik va uni rivojlantirish texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. Axmedov S.Q. Pedagogik texnologiyalar asosida kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
7. Ergasheva Z.R. Bo‘lajak o‘qituvchilarda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish masalalari Pedagogik ta’lim. –2021. 45-49. B.
8. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
9. Sayidahmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2018.
10. Banks J.A. Teaching Strategies for Legal and Civic Education. – New York: Routledge, 2010.
11. Berkowitz M., Bier M. What Works in Character Education. – Washington DC: Character Education Partnership, 2007.
12. Xodjayev B.X. Ta’limda kompetensiyaviy yondashuv asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.